

Kamalova Dilnavoz Ixtiyorovna
Aniq fanlar fakulteti professori, t.f.d. (DSc)
Amurillayeva Munira Utkirjonovna
“Texnologik ta’lim” yo’nalishi talabasi
Navoiy davlat universiteti

**TEXNOLOGIYA FANNI O’QITISHDA – EKSKURSIYANING O’RNI
VA AHAMIYATI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnologiya fanlarini o’qitishda sinfdan tashqari ish turlaridan biri hisoblangan – ekskursiyaning o’rni haqida fikrlar bayon etilgan. Ekskursiyalar – nazariya bilan amaliyotni bir-biri bilan chambarchas bog’laydigan ish turi hisoblanadi. Ekskursiyalar – talaba va o’quvchilarda kasbga va mehnatga bo’lgan moyillik bor-yo’qligini aniqlashda yordam beradi. Talaba va o’quvchilarga ekskursiya uchun obyekt sifatida tanlangan hudud – eng avvalo o’qituvchi uchun nazariy ma’lumotlar bilan boyitilishi lozim. Shundagina ekskursiyadan ko’zlangan maqsadga erishiladi.

Kalit so’zlar: texnologiya, sinfdan tashqari ishlar, dars, ta’lim, ekskursiya, nazariya, amaliyot.

Камалова Дильнавоз Ихтиёровна
Профессор факультета «Точных наук», д.т.н. (DSc)
Амуриллаева Мунира Уткиржоновна
Студентка по направлению «Технологическое образование»
Навоийский государственный университет

**РОЛЬ ЭКСКУРСИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА
ТЕХНОЛОГИИ**

Аннотация. В данной статье описывается роль экскурсии, которая считается одним из видов внеклассной работы в преподавании технологии. Экскурсии – это вид работы, тесно связывающий теорию и практику. Экскурсии помогают определить, есть ли у студентов и школьников склонность к профессии и труду. Территория, выбранная в качестве объекта экскурсии учащихся и учащихся, должна быть обогащена, прежде всего, теоретической информацией для учителя. Только тогда цель экскурсии будет достигнута.

Ключевые слова: технология, внеклассная работа, урок, обучение, экскурсия, теория, практика.

Kamalova Dilnavoz Ikhtiyorovna

Professor of the faculty of “Exact sciences”, d.t.s. (DSc)

Amurillaeva Munira Utkirjonovna

Student of the department of “Technological science”

Navoi state university

THE ROLE OF THE EXCURSION IN TEACHING THE SCIENCE OF TECHNOLOGY

Annotation. This article describes the role of the excursion, which is considered one of the types of extracurricular work in the teaching of technology. Excursions are a type of work that closely connects theory and practice. Excursions help to determine whether students and pupils have an inclination towards profession and work. The area chosen as an object for students and pupils' excursion should be enriched with theoretical information for the teacher first of all. Only then will the purpose of the excursion be achieved.

Key words: technology, extracurricular activities, lesson, education, excursion, theory, practice.

Kirish. So'nggi yillarda yurtimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi, ta'lim sohasiga ham yuqori darajada e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ham yangi davr talablariga mos davlat ta'lim standartlari va unga mos ravishda fan dasturlari ishlab chiqilmoqda. Unga mos ravishda sifatli dars jarayonlarini tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu taqdim etilayotgan maqolada ham oliy ta'lim muassasalarida texnologiya ta'limi mazmunini takomillashtirish, talabalarning darslarda erkin va mustaqil fikrlashlari, mantiqiy mushohada qilishlari, faollik va ijodkorlik kabi qobiliyatlarini rivojlantirish, nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.


Ma'lumki, 2020-yil 6-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim tarbiya va ilm-fan sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6108 sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida PQ-4884 sonli "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori qabul qilingan edi. Bu kabi qarorlarning ijrosini ta'minlashda biz olib borayotgan pedagogik tadqiqotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Texnologiya fanidan dars mashg'ulotlari jarayonini tashkil etishning sinfdan tashqari shakli ham u yoki bu turdagi dars mashg'uloti hisoblanadi. Tashkil etilgan dars va darsdan tashqari jarayonning har biri umumiy yakunlangan, shuning bilan birga aniq bir maqsadga (o'quvchilarga yangi bilimlar berish, yangi texnologik tushunchalarni kengroq shakllantirish, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash malakasiga ega bo'lishni o'rgatish, mavjud bilimlarni yanada chuqurlashtirish va ularni mustahkamlash, takrorlash hamda nazorat qilish kabilar) yo'naltirilgan bo'ladi.

Dars – o'quv tarbiyaviy jarayonida asosiy qism sifatida pedagogika, psixologiya va didaktika prinsiplariga muvofiq tashkil etiladi. U o'qituvchi va o'quvchi-talabalarni, turli elementlarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab va muvofiqlashtirilgan harakatlari majmuasidir. Darslarning tuzilishi va turkumlari

masalasiga qator pedagogik tadqiqotlar bag'ishlangan. Ularda darsni tashkil etishda asos sifatida nima qabul qilinishiga: mazmuni, o'qitish metodlari, o'qitish jarayonining asosiy bosqichlari, o'qitish maqsadlariga bog'liq bo'lgan turli xil yondoshuvlar qarab chiqilgan.

Texnologiya fani bo'yicha darsdan va sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish bo'yicha uch xil izoh mavjud. Bular sxemada keltirilgan (1-sxema):



1-sxema. Sinfdan tashqari ishlarning turlari

Sinfdan tashqari ishlarning har biriga alohida qaysi ish turlari kirishini quyida ko'rishimiz mumkin:

✓ Individual – o'quvchi bilan yakka holda ishlash, olimpiadaga tayyorlash, tanlovga tayyorlash, referat tayyorlash, ma'ruza va tezislar tayyorlash, tajriba o'tkazish va h.k.

✓ Guruhli – to'garaklar, fakultativ kurslar, darsdan tashqari o'qishlar, QVZ va h.k.

✓ Ommaviy – olimpiadalar, tanlovlar, fanga doir kechalar, ekskursiyalar, fanga doir hafaliklar, viktorinalar va h.k.

Har bir o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rayotganda uning asosiy maqsadi va vazifasini belgilaydi, uni optimal hal qilish uchun o'qitish metodlarini va o'quv ishini tashkil qilish shakllarini tanlab oladi.

Keyingi yillarda ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida o'qitishning yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda, boshqa fanlar qatori texnologiya fanini o'qitishda ham rivojlangan mamlakatlarda sinalgan, samarali natijalar bergan dars turlari qo'llanmoqda. Bu darslarning muhim jihati shundan iboratki, unda o'quvchi-talabalarni ko'proq mustaqil ishlashga, darsni amaliy jihatini kuchaytirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Agar, o'quvchi chuqur nazariy bilimga ega bo'lsa-yu, lekin, yetarli amaliy ko'nikmani egallamagan bo'lsa, u o'zining bilimini amaliyotda qo'llay olmaydi va bilimni foydali maqsadda yo'naltira olmaydi. Shuningdek, o'quvchi-talaba mustaqil bilim olish ko'nikmasini egallamagan bo'lsa, u o'z bilimini chuqurlashtirish, rivojlantirish va yangilash imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Shu tufayli yangi turdagi darslarni o'qitish jarayoniga kirib kelishi samarali natija berishi tabiiydir.

Hozirgi paytda fan va texnika shunday tez rivojlanib bormoqdaki, uni o'quv dasturlariga kiritib ulgurish juda qiyin. Buni inobatga olgan holda har bir umumiy o'rta ta'lim maktabi texnologiya fani o'qituvchisi internet tizimi va boshqa ommaviy axborot manbalari orqali hozirgi fan va texnika yangiliklariga tegishli ma'lumotlarni olib, dars jarayonida qo'llashlari kerak bo'ladi, aks holda o'quvchilarga bugungi zamon talablari darajasida bilim bera olishlari qiyinlashadi.

Ta'limda har bir texnologiya fani o'qituvchisi texnologiya fanini o'qitish jarayonida qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishlari bilan cheklanmasdan, o'zlari ham dars o'tishning samarali usullarini yaratish ustida ishlashi va ijod qilishini davr talab qilmoqda.

Oxirgi paytlarda aksariyat ko'pchilik pedagog-o'qituvchilar yangi mavzuni o'rganish davomida darslarida o'quvchilardan ma'lumotlarni so'rash va ularni baholashni asosan dars boshida emas, balki dars davomida va oxirida, o'rganilgan materialni mustahkamlashda amalga oshirmoqda.

Bunda o'tilganni takrorlash yangi material uchun zarur bo'lsa, qisqacha, jonli suhbat shaklida olib boriladi va baholash shart emas. Darsning asosiy qismi yangi bilimlarni shakllantirish va mustahkamlashga qaratiladi.

Texnologiya fanini o'rganishda o'quvchilarning o'zlari qiladigan ishlari katta ahamiyatga ega, chunki o'quvchilarda muhim amaliy o'quv va malakalar hosil qilinadi. Ammo, butunlay ongli, ravshan, sistemali va puxta bilim olish uchun mustaqil ishning o'zi kifoya qilmaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni texnikaviy jihatdan tayyorlash uchun eng muhim vositalaridan biri ishlab chiqarish jarayonlariga o'tkaziladigan – ekskursiyalardir. Ishlab chiqarishlarda o'tkaziladigan ekskursiyalar ta'lim tarbiya jihatidan katta ahamiyatga ega.

Ekskursiya – bu tanishish yoki o'rganish maqsadida aniq belgilangan reja bo'yicha o'tkaziladigan, mavzuli hikoyalar bilan olib boriladigan biror obyektni ko'rsatish jarayonidir. Har bir ekskursiyaning mazmuni (xususiyati) hikoya qilish, namoyish etish, ma'lumot berishdan iborat. Agar namoyish etish (tanishtirish) bo'lmasa bunday madaniy, ilmiy jarayon ekskursiya emas, balki oddiy ma'ruza yoki suhbat hisoblanadi. Har bir ekskursiya mavzusi va maqsadidan qat'iy nazar quyidagi belgilarga ega bo'lishi shart:

- ✓ Aniq vazifa, mavzu va maqsad mavjudligi;
- ✓ Guruh yoki individual (yakka) ekskursant mavjudligi;
- ✓ Ekskursavod borligi;
- ✓ Vaqtning davomliligi;
- ✓ Ekskursiya obyektlarini bevosita ular joylashgan o'rinda ko'rsatish;
- ✓ Tomoshaning maqsadga muvofiqligi;
- ✓ Oldindan ishlab chiqilgan yo'nalish bo'yicha harakatlanish;

Ekskursiyada aynan hikoya qilish va namoyish etish asosiy xususiyatlardir. Lekin, ko'rilayotgan narsalar haqida chuqur tahlil, ma'no, tushuncha berilmasa, bu ishtirokchilar uchun faqatgina diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish bo'ladi. Ekskursiyaning mazmuni ham ko'rilayotgan obektlarga qiziqarli ma'lumotlarni aytib berishdan iborat. Ekskursavodning obyekt haqida aniq faktlar, hodisalar, jarayonlarga asoslanib hikoya qilayotganlari o'quvchilar onekskursavoda ko'rayotganlari bilan bog'lanib umumlashadi.

Shu tariqa ekskursavod o'quvchilarga obyektlarni to'g'ri ko'rishni o'rgatadi. Bu jarayonda ekskursiyaning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan atrof-muhitni emotsional qabul qilish katta rol o'ynaydi. Ekskursavod o'quvchilarni nafaqat eshitish va ko'rishga, balki voqea hodisalarni his etishga majburlashi kerak. Ko'rgan va eshitganlar o'quvchilarga javob hissiyotini uyg'otish zarur (hayrat, quvonch, g'urur).

Ekskursiya – bu nafaqat vaqt o'tkazish, balki jismoniy va ruhiy kuch sarflashni talab qiluvchi, bo'sh yoki o'qish vaqtidagi intellektual faoliyatidir. Ekskursiya o'zining ko'rgazmaliligi, daromadliligi, hissiyotliligi bilan insonlarning ruhiy qiyofasi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ekskursiyalar nazariya bilan amaliyotni bir-biri bilan chambarchas bog'laydi. O'quvchilarda mehnatga bo'lgan va kasbga moyillik bor-yo'qligini aniqlashda yordam beradi. Ekskursiya uchun obyekt sifatida faqat yirik va faqat ishlab chiqarishlardan emas, balki kichikroq ishlab chiqarishlardan ham foydalanish mumkin.

Ekskursiya o'tkaziladigan bu ishlab chiqarishlarda o'quv dasturida ko'rsatilgan jarayonlar bo'lishi kerak. O'tilgan va o'tiladigan o'quv materialida qo'llanilgan ko'p ko'rgazmali hamda va fizik va astronomik tajribalar yordamida fizik va astronomik jarayonlar sanoatda qo'llanishini faqatgina ekskursiya vaqtida o'quvchilarga aniq dalillar bilan tushuntirish mumkin. Ekskursiya davomida o'quvchilar asosiy va qo'shimcha qurilmalarning ishi va tuzilishi, texnologik jarayonlar bilan tanishib aniq tushunchaga ega bo'ladi. Bunda dars davomida ko'rilmagan ayrim tajribalarni, muhandislik inshootlarni o'z ko'zi bilan ko'radi. Bu ekskursiyalar davomida aniq misollarda qo'shimcha mahsulotlardan to'g'ri foydalanish hamda sanoat texnologiyasini yanada mukamallashtirish yo'llarini hozirgi zamon fan yutuqlari orqali tushuntirish mumkin. Ekskursiya davomida o'quvchilar kuchi bilan fizika va astronomiyadan ko'rgazmali qurollar, kolleksiyalar, sxema, maketlar, modellar yasash, shu davr ichida ularni grafik ma'lumotini oshirish, qurilmalarni sxemasini chizishni o'rgatish mumkin. O'quv

ekskursiyalarni o'tkazishga tayyorgarlik ekskursiya obyektini tanlashdan boshlanadi.

Ekskursiya obyektlari. Dasturning o'qitish xatida har bir sinfda yiliga kamiga bir marta ekskursiya o'tkazish talab etiladi. Quyidagilar ekskursiya obyektlari bo'lishi mumkin:

- a) oliy ta'lim muassasalari;
- b) ilmiy laboratoriyalari;
- c) fabrika va zavodlar;
- d) mahalliy sanoatning hunarmandchilik ustaxonalari;
- e) tabiiy xom ashyo va ular ishlanadigan tegishli joylar;
- f) muzeylar;
- g) ko'rgazmalar.

Ko'p joylarda dasturda ko'rsatilgan ekskursiya obyektlari bo'lmaganidan belgilangan ekskursiyalar to'liq bajarilmay qoladi. Bunday holda obyektlar mahalliy sharoitga qarab tanlanadi.

Ekskursiya sinf sharoitidan tashqarida o'tkaziladigan darsdir. Ularni maktab ta'til kunlari ham o'tkazilishi mumkin. Yil davomida 8-sinflarda kamida bir marta, kasb-hunar maktablarida kamida ikki marta ekskursiya darslarini o'tkazish kerak. Ekskursiya ham dars kabi ma'lum bosqichlarga ega, dars kabi muayyan reja asosida o'tkaziladi. O'quvchi ekskursiyadan oldin boriladigan obyekt haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'lishlari zarur. O'qituvchi o'zi oldin obyektни yaxshi o'rganishi zarur.

Xulosa. Texnologiya fani o'qituvchilari birgalikda kompleks ekskursiya o'tkazishlari yanada yaxshi natija beradi. Bunda o'quvchi ishlab chiqarish korxonasini har tomonlama to'liq o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi va fanlar orasidagi uzluksiz bog'liqlikni yaxshiroq his qiladi. Bugungi kunda Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining 4+2 amaliyoti davrida belgilangan umumiy o'rta ta'lim maktablarida amaliyot o'tayotgan bitiruvchi kurs talabalari 6- hamda 8-sinf o'quvchilari bilan birgalikda ekskursiyalar tashkil etildi. Albatta, har bir ekskursiya o'quvchilarda fan yuzasidan ma'lumot ega bo'lishini xizmat qilishi nazarga

olingan holda Navoiy viloyatidagi “Monomarkaz” da, “Navoiy qurilish sinov” MChJlarda ta’limiy ekskursiyalar tashkil etildi. Bu esa o’quvchilarda nafaqat kasb-hunra o’rganish, balki ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib boorish borasida ham qiziqishlarini ortishiga xizmat qilishi, shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Kamalova D.I. va b. Astronomiya fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiyar: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami. Toshkent. №01(28). 2023.

2. Kamalova D.I. va b. Mustaqil ta’limni tashkil etish va unga qo’yiladigan talablar. “Journal of universal science research”. Volume 1. Issue 1. 17 january. 2023. pp. 182-186.

3. Kamalova D.I. va b. O’quvchilarning astronomiya fani bo’yicha savodxonligini baholashda mantiqiy fikrlashning ahamiyati. JISER. “Journal of innovations in scientific and educational research”. Volume 2. Issue 15. 28-february. 2023. pp. 4-7.

4. Kamalova D.I., Nabiyeva F.O. O’quvchilarning bilimlarni o’zlashtirishida STEAM yondashuvining ahamiyati. “Fizika fanini axborot va innovatsion texnologiyalar muhitida o’qitishning zamonaviy tendensiyalari: muammo va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to’plami. 10-oktabr. 2023. Navoiy. 227-230 bet.

5. Kamalova D.I., G’afforova B.O. “Fizika fanini o’qitishni takomillashtirishda xalqaro ta’lim dasturlaridan foydalanish (STEAM dasturi misolida)” elektron darsligi. O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi. №DGU 29763. 23.11.2023.